

**BADIY-G’OYAVIY TAHLILI**

***Yusupova Shodiyona***

*O’zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti O’zbek tili va adabiyoti  
yo’nalishi 2-bosqich talabasi*

***Usarova Laylo Ibragimovna***

*O’zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti O’zbek tili va adabiyoti  
kafedrasi dotsenti*

***Annotatsiya:*** Ushbu maqolada Chingiz Aytmatov ijodida alohida ahamiyatga ega bo’lgan “Asrga tatigulik kun” romanining badiy-g’oyaviy tahlili yoritildi. Misollar bilan tahlil qilindi.

***Kalit so’zlar:*** Chingiz aytmatov, roman, manqurt, fofia, ona, farzand, ozraz, konflikt.

XX asr qirg’iz adabiyotining eng yorqin namoyondalaridan biri hisoblangan Chingiz To’raqulovich Aytmatov o’zining tarixda ulkan iz qoldirgan takrorlanmas va shoh asarlari bilan, nafaqat, qirg’iz xalqining, balki, o’zbek xalqining ham yuragini tub-tubidan alohida va o’chmas joy olgan. Buyuk qalam sohibi hisoblangan bu adibning beba ho asarlari allaqachon o’zbek adabiyotining durdonalariga aylangan desak mubolag’a bo’lmaydi. Zeroki, mazkur ijodkorning durdona asarlari har bir kitobxonni chuqur o’yga tortadi, dunyoqarashini sayqallaydi va ruhiyatini izga soladi. Adib o’zining har bir asarida chinakamiga yashaydi, personajlar ruhiyatini to’laqonli tahlil qiladi va ular bilan nafas oladi. Shu o’rinda aytish joizki, yozuvchining nodir asarlari bilan birgalikda uning oltinga teng so’zlari ham ikki xalq adabiyoti rivojiga ulkan hissa qo’shgan. Jumladan, hayotning turli xil yo’llarini bosib o’tgan, hayot qiyinchiliklariga oqilona va to’g’ridan-to’g’ri qaray olgan bu inson o’zi yashagan hayotidan, bosin o’tgan yo’llaridan, tik qaray olgan hayot qiyinchiliklaridan xulosa qilgan holda

kelajak avlod uchun, biz uchun o’zining dono fikrlarini yozib qoldirgan. Umrining ma’lum davrini bosib o’tgan adib yozuvchilik o’ta sharaflı, shu bilan birgalikda alohida mehnat va sabr-toqat talab qilishini ta’kidlab quyidagi fikrlarni yozadi:

“Hech kim o’z-o’zidan yozuvchi bo’lib qolmaydi: yillar sabog’i, qilingan mehnat, badiiy adabiyotga bo’lgan qiziqish va e’tiqod orqali bunga erishish mumkin [ 1:350 ]

Darhaqiqat, yaratiladigan har bir asar o’ziga xos mehnat, qiyinchilik va sabr talab qiladi. Yozuvchi o’z personajlari bilan birga yig’laydi, birga kuladi, ularning dunyosida yashaydi. Shu bilan birgalikda, buyuk bir shaxsning, takrorlanmas qalam sohibining dunyoga kelishida, uning kamol topishida ona rolining o’rni beqiyos. Adib ham o’z asarlarida ona obraziga alohida urg’u beradi. O’z davrining o’qimishli ayollaridan biri Nagima Hamzayevna Aytmatova ham Chingiz Aytmatov hayotida beqiyos bir timsoldir. Bu ayol farzandi, dilbandi uchun ham ona, ham hayot yo’lidagi ustozi demakdir. Adibning hayotida ikki ayolning o’rni beqiyosdir. Biri onasi, yana biri yozuvchi uchun ertak va dostonlarning bitmas-tuganmas xazinasi hisoblangan buvisidir. Chingiz Aytmatovning adabiyotiga kirib kelishida turtki bo’lgan shaxs uning buvisi desak noto’g’ri bo’lmaydi. Zeroki, adib buvisining tunlari bedor aytgan ertaklaridan ilhomlanib o’z asarlarini yozdi. Yozuvchining nodir durdonalariga urg’u berar ekanmiz uning “Birinchi muallim”, “Oq kema”, “Momo yer”, “Qiyomat”, “Asrga tatigulik kun” va shu kabi bir qator asarlari beixtiyor yodimizga keladi. Yuqorida adib hayotida ona timsoli beqiyos deya ta’kidladik. Buni dalillash sifatida “Asrga tatigulik kun” romanining badiiy mohiyatiga e’tibor qaratsak kifoyadir.

Chingiz Aytmatov qalamiga qalamiga mansub “Asrga tatigulik kun” romani qirg’iz adabiyoti, o’zbek adabiyoti va jahon adabiyoti taraqqiyotida ulkan burilish bo’ldi, har bir kitobxonning qalbidan chuqur joy egalladi, ruhiyatini larzaga keltirdi. “Yozuvchi bu romaniga X asrda yashab o’tgan arman yozuvchisi Grigor Narikatsining “Musibatnoma” kitobidan “Bu kitob jism-u fig’onimdir mening, Bu kalom jon-u jahonimdir mening” satrlarining epigraf qilib olinishida ham teran ma’no bor” [2:357]

Chinakamiga mazkur roman adib uchun jon-u jahonning o'zi edi. Aynan mana shu asar orqali yozuvchi qalbining tub-tubida yashayotgan dardlarini, ohufig'onlarini bayon etdi. Yozuvchi asardagi asosiy urg'uni yagona ongli mavjudot bo'l mish inson timsoliga qaratdi. Inson tug'ilgan joyi, xalqi, tarixiy ildizlari, qadriyatlari va an'analarini bilan insondir, aslida. Asar ichiga kirib borar ekanmiz, inson o'zligini, qadr-qiyomatini yo'qotishi, kimligini unutishi eng og'ir va dahshatli falokat ekanligiga yana bir bor guvoh bo'lishimiz mumkin. Chingiz Aytmatov asarda insonning o'zligidan mahrum etilishi joniga qasd qilinishidan ham daxshatli ekanligini yovqur Nayman ona fojiasi orqali yoritib beradi. Yozuvchi romanni o'tkir syujet, personajlardagi ichki konflikt asosiga qurdi va ommaga tadbiq etdi. Yuqorida ta'kidlanganidek, inson ongli mavjudot bo'l ganligi sababli ham eng oliv qadriyatdir. Romandagi asosiy mohiyat ham ong tushunchasiga borib taqaladi. Ilk eshitganimizdayoq qalbimizni junbushga keltiruvchi, hayolotimizga bir bo'rondek kirgan manqurt nomli so'z ham romanda yozuvchi tomonidan to'laqonli tarzda yoritilgan. Xo'sh, manqurt kim o'zi? Nega aynan manqurt? Bu savollar, nafaqat, kitobga oshno, balki, har bir insonni chuqur o'yga toldirishi tabiiy holdir. Yuqorida ong tushunchasiga bejiz ko'p to'xtalib o'tmadik. Manqurt va ong tushunchalari bir butun zanjir demakdir. Bularning barchasi esa, avvalo, tarixiy xotira va o'zlik tushunchalariga borib taqaladi. "Tarixiy xotira o'zining kimligi, nasl-nasabi, olis va yaqin tarixini doimo yodda tutib yashash tuyg'usi, qobiliyatidir. Tarixiy xotirasi bor odam kuchli odam. Tarixiy xotirasini yo'qotgan inson o'zligini, xalqini, Vatani, erkinligini ham yo'qotadi va manqurtda aylanadi. "Manqurt" qadimiy so'z bo'lib, tarixiy xotirasini yo'qotgan, ota-bobosini, o'zining kimligini esdan chiqargan kimsani anglatadi" [3:32]

Adib romanda manqurt timsolini yoritar ekan, avvalo, makon va zamonni bir-biriga bog'laydi. Adib chinakamiga bu ishning uddasidan chiqdi. Manqurt kim? Manqurt Jo'lamon! Ha, o'sha tengsiz fofja egasi bo'lган Nayman onaning yagona dilbandi, o'g'li Jo'lamon. Turli xil qiynoqlarni boshidan kechirgan, jungjanglar atalmish shafqatsiz qabilaning asiriga aylangan, o'zligidan mahrum bo'lган Jo'lamon. Asarning aynan shu qismida inson qalbini shiddatli sovuqlik

qamrab oladi. Manqurt deya tasvirlangan Jo'lamonning boshiga tuya terini kiydirilib qoq jaziramada qoldirilishi, o'zligidan, xotiralaridan mahrum etilishi, hattoki oq sut bergen onasini tanimas ahvolga kelishi nihoyatda achinarli va qalblarni larzaga keltiruvchi, inson vujudini muzlatuvchi, ko'zlarga yosh keltiruvchi holatdir. Har bir insonning yosh qalqib turgan ko'zlari oldidan onaizorning chorasiz ahvoli o'tishi tabiiy holat. O'z onasining qotiliga aylanish esa undanda og'ir fojia. Bu fojiaga shubhasiz tarixni larzaga keltirdi. Bu kun haqiqiy ming asrga tatigulik kun bo'ldi. Vujudining bir parchasi, o'stirib ulg'aytirgan farzandi tomonidan o'ldirilgan ona timsolini o'ylashning o'zi daxshatlidir.

Adib katta mahoratga ega bo'lganligi sababli ham Jo'lamon obrazini bugungi kun bilan bog'lay oldi. Faqat endi hech qanday jungjanglar, tuya terisiyu odam oyog'i yetmas jazirama cho'llar yo'q. Endi bu davrning "qahramoni" bo'lgan Sobitjon obrazi maydonga keldi. Bugungi zamonning manqurti hisoblangan Sobitjon deyarli ongsiz bir mavjudot demakdir. Mehrsiz bir o'g'il obrazi. O'z manfaati, shon-shavkat uchun hamma narsadan voz kechuvchi, farzand degan nomga noloyiq bo'lgan timsoldir.

Asarni bu qismini tahlil qilib, bir inson o'z otasiga shunchalik ham e'tiborsiz va bemehr bo'lishi mumkinmi? - degan o'ylar insonni qiyaydi. Agar romanni e'tibor bilan o'qisangiz otasining do'sti bo'lgan Edigey obrazining ichki konfliktiga ham guvoh bo'lasiz. Edigey o'zining ichki o'y-xayollar bilan to'qnashadi. Nahotki bir farzand o'z otasiga nisbatan shunchalik ablah bo'lishi mumkinmi?- degan savollar uni qiyardi. Demak manqurt bo'lish uchun faqatgina xotirasini yo'qotish emas, shunchaki ota-onasiga nisbatan bemehr, e'tiborsiz, qalbida zarracha iliqlik yo'q bo'lishining o'zi ham kifoya ekan.

Xulosa o'mida aytish mumkinki, inson eng oliy qadriyat va u o'zining, xalqining qadriyatlari bilan yuksaladi, tarixini bilganligi sababli kamol topadi. Ota-onasiga farzandi yaxshimi-yomonmi, ularning yuragining bir parchasidir. Avvalo, har birimiz ota-onamizga munosib farzand bo'lishimiz zarur. Shu bilan birgalikda, Vatanga bo'lgan muhabbat sof bo'lsa, inson hech qachon yo'lidan adashmaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Adabiyot 9-sinf darslik. Toshkent - 2019. 368
2. Chingiz Aytmatov “Asrga tatigulik kun” romani. Toshkent - 2018. 420
3. Vatan tuyg’usi 6-sinf darslik. Toshkent - 2015. 120
4. Ziyo.uz sayti